

SO'ROQ GAPLAR FEL-ATVOR SIFATLARINI IFODOLOVCHI VOSITA  
SIFATIDA

Zahro Mamadaliyeva

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda so'roq gaplar tilshunoslikda muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qilib, muloqot jarayonida turli ma'lumotlarni aniqlash, tasdiqlash yoki shubha ostiga olish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ushbu gaplar orqali so'zlovchining munosabati, emotsional holati va nutqiy maqsadi aniqlanadi. Fel-atvor sifatlarini ifodalashda so'roq gaplar vositasi alohida o'rin tutadi, chunki ular yordamida shaxs yoki narsa haqida turli fikrlar bildirilib, ularning xususiyatlari yoki holatlari baholanadi. Masalan, "Bu ishni sen bajardingmi?" kabi gaplar orqali bajarilgan harakat yoki uning sifatiga nisbatan shubha yoki tasdiqlash ifodalanadi. Shu tariqa, so'roq gaplar nutqning ifodaviyligini oshiradi va suhbatdoshlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Ushbu maqolada so'roq gaplar fel-atvor sifatlarini ifodolovchi vosita sifatida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kirish so'zlar:** *So'roq gaplar, Pragmatik vazifa, Kommunikativ funksiyalar, Fel-atvor sifati, Lingvotemperament, Pragmalingvistika.*

INTERROGATIVE STATEMENTS AS A MEANS OF EXPRESSING VERBAL  
ADJECTIVES

Zahro Mamadaliyeva

*Teacher, Fergana State University*

**Abstract:** *Today, interrogative sentences serve as an important pragmatic tool in linguistics, performing communicative functions such as determining, confirming or questioning various information in the process of communication. Through these sentences, the speaker's attitude, emotional state and speech purpose are determined. The tool of interrogative sentences plays a special role in expressing attitudinal qualities, because with their help, different opinions are expressed about a person or thing, and their properties or states are evaluated. For example, through sentences such as "Did you do this?", doubt or confirmation is expressed regarding the performed action or its quality. Thus, interrogative sentences increase the expressiveness of speech and ensure mutual understanding between interlocutors. This article presents information on interrogative sentences as a means of expressing attitudinal qualities.*

**Keywords:** *Interrogative sentences, Pragmatic task, Communicative functions, Attitudinal quality, Lingvotemperament, Pragmalinguistics.*

ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ КАК СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ  
СВОЙСТВ ГЛАГОЛОВ

Захро Мамадалиева

*Преподаватель Ферганского государственного университета*

**Аннотация:** *Сегодня вопросительные предложения служат важным прагматическим инструментом в лингвистике, выполняя такие коммуникативные задачи, как выявление, подтверждение или сомнение различной информации в процессе общения. Посредством этих предложений определяются отношение*

говорящего, эмоциональное состояние и цель речи. Вопросительные предложения занимают особое место в выражении наречий, так как с их помощью выражаются различные мнения о человеке или предмете, оцениваются их характеристики или ситуации. Например: «Вы выполнили эту работу?» С помощью таких предложений выражаются сомнения или утверждения относительно совершенного действия или его качества. Таким образом, вопросительные предложения повышают выразительность речи и обеспечивают взаимопонимание между собеседниками. В данной статье представлена информация о вопросительных предложениях как средстве выражения наречий.

**Ключевые слова:** *Вопросительные предложения, Прагматическое задание, Коммуникативные функции, Качество характера, Лингвотемперамент, Прагмалингвистика.*

### KIRISH

Til inson tafakkuri va muloqotining eng muhim vositasi bo'lib, uning yordamida fikr almashish, o'zaro anglashuv, axborot yetkazish va munosabatlarni o'rnatish jarayoni amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatda so'roq gaplar alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat ma'lumot olish yoki bilish ehtiyojini qondirish, balki muloqot jarayonida suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish, o'z munosabatini bildirish, hayrat, shubha, tasdiq yoki inkor kabi tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli so'roq gaplar muloqot jarayonida pragmatik vazifalarni bajaradi va nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Tilshunoslikda so'roq gaplarning sintaktik va semantik xususiyatlari, ularning pragmatik ahamiyati, kommunikativ funksiyalari ko'plab tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylangan. So'roq gaplar yordamida shaxsning fel-atvor xususiyatlarini ifodalash imkoniyati ham mavjud. Masalan, "Sen bu ishni rostdan ham uddaladimi?" yoki "U shunday ish qila olarmidi?" kabi so'roq gaplar orqali nafaqat ma'lumot olish, balki suhbatdoshga nisbatan shubha, ishonchsizlik yoki hayrat kabi hissiyotlar ifodalanadi. Bunday gaplar nafaqat savol berish, balki nutqiy vaziyatni baholash, suhbatdoshga nisbatan munosabat bildirish imkonini ham beradi.

So'roq gaplar orqali fel-atvor sifatlarini ifodalash mavzusini o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki bu vosita yordamida shaxsning xarakteri, qobiliyati va ruhiy holati yuzasidan tasavvurlar ifodalanadi. Ushbu tadqiqotda so'roq gaplarning mantiqiy va grammatik tuzilishi, ularning fel-atvor sifatlarini ifodalashdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu orqali so'roq gaplarning kommunikativ vazifasi va ularning tilshunoslikdagi o'rni aniqlanadi. Mazkur maqolani dolzarbligi shundaki, so'roq gaplar har bir tilda o'ziga xos ko'rinishda shakllanib, turli xil funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat axborot olish uchun, balki nutqning ifodaviyligini oshirish, suhbatdoshning munosabatini aniqlash va baholash uchun ham xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida so'roq gaplarning fel-atvor sifatlarini ifodalashdagi ahamiyati chuqurroq ochib beriladi va ularning tilshunoslikdagi o'rni yoritiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Tilshunoslikda eng muhim jihat nutq orqali insonning ichki olami sifatlarini aniqlash bo'lib qolmoqda. Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, kishilar nutqidagi har bir belgi ularning xulq-atvori haqidagi etiket, yorliqdir. Bu yo'nalish fanda bixeyvoristika yoki bixeyvor lingvistika deb yuritilmoqda.

Insonlar turlicha fe'l-atvorga egalar, bu, ayniqsa, ularning nutqiga xos so'roqlar orqali anglashiladi. Bunda tilshunoslikning eng yangi terminologik paradigmasi tarkibiga kiruvchi lingvotemperament tushunchasi ahamiyatli bo'ladi. Lingvotemperament shaxsga xos temperamentning lisoniy vositalar yordamida yuzaga chiqish holatiga nisbatan qo'llaniluvchi terminologik birlik bo'lib, uning paradigmasida lingvoxolerik, lingvosangvinik, lingvoflegmatik

va lingvomelanxolik turlar farqlanadi. Bu terminologik paradigma tilshunos olimlar A.Nurmonov, M.Hakimov, S.Qurbonovalarning tadqiqot ishlarida qo'llanilgan.

Lingvotemperament biror fikrning qay tarzda ifoda etilishi asosida aniqlanadi. So'roq shakllari lingvotemperamentni aniqlashda nihoyatda muhim element sanaladi. So'roqlarning ifoda etilishi orqali shaxsning atrof-olam, kishilarga munosabati, jamiyat a'zolari bilan kommunikatsiya jarayonida o'ziga bo'lgan subyektiv bahosi aks etadi.

“Ma'lumki, insonning so'zi uning mafkurasini belgilaydi. Inson o'z nutqi orqali obyektiv olamga bo'lgan munosabatini ifoda etadi, shu bilan birga milliy o'zligini ham namoyish etadi. Insonning dunyoqarashi, ongi, shuuri, hissiyoti, idroki, bilimi, hayotiy tajribasi, imon-e'tiqodi, umuman, inson ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'luvchi siyosiy-mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, diniy va estetik qarashlari mujassam bo'lgan uning nutqining tahlili va pragmatik talqini kishilarning bugungi milliy mustaqillik davrida qaynoq hayot jabhalaridagi o'rnini belgilashda muhimdir. Shu ma'noda inson ijtimoiy faoliyatini o'zida to'la aks ettirgan “harakat”dagi, “jonli” nutqning inson mafkurasini bilan bog'liq siyosiy va lisoniy hamohangligi” ni o'rganish bugungi kunda tilshunoslar oldida turgan eng muhim muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ham har qanday badiiy asar mazmunida inson va uning dunyoqarashini ifodalash muammosi turadi.

Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, so'roq gaplar har doim ham so'rash mazmunini ifodalayvermaydi. Ba'zan shaxslarning ichki kechinmalari, o'y-fikr va shubha-gumonlari ham so'roq gap shaklida ifodalanadi.

O'sha kunlar endi Tolibjonning dilida armon bo'lib qoldi.

“Bag'ringa bosib erkalatmaymanmi, sochlarini silamaymanmi?! Axir, uni joni meni ichimda, uning joni meni jonim uni ichida edi-ku. Nahotki, shu muhabbat bo'lmasa?!”

Tolibjon uni nihoyatda qattiq sevganiga endi iqror bo'lyapti.

(S.Ahmad, “Jimjitlik”, 216-bet)

Yuqorida berilgan parchadan so'roq gaplar pragmatikasiga xos yana shunday xususiyatni belgilash mumkinki, so'roq gaplar asosan dialogik nutq tipida emas, ba'zida monologik nutq tarkibida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda so'zlovchining ichki ovozidan foydalaniladi. Yuqoridagi matnda ham so'zlovchining xayolan o'z-o'zi bilan so'zlashgani, armonlari ifodasi aks etgan bo'lib, unda bitta shaxs ikki olamda, ya'ni botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) qismga ajralgan holda namoyon bo'ladi.

So'roq gaplarning nutqda qo'llanish holatlari nihoyatda qiziqarli va sermazmundir. Masalan, ba'zi bir hollarda so'roq gaplarning savol qismi ham, javob qismi ham bitta shaxs nutqiga tegishli bo'ladi. Bunday hollarda so'roq gaplar odatdagicha so'roq mazmunini emas, balki so'zlovchining kayfiyati va qat'iy fikrlarini ifodalash uchun qo'llanadi. So'zlovchi o'z fikriga qat'iy ishonchi mavjudligidan o'z savoliga suhbatdoshining – tinglovchining javobini ham kutmaydi, javobni o'zi beradi. Masalan,

Hoji aka har gal taomni og'ziga solganda Rasulbek sha'niga hamdu sanolar o'qirdi.

-Vey, bu hunarni qaydan o'rgangansan, palakat?! Juda zo'r ekansan-ku!

-Hali shoshmang, Hoji aka. Tog' jilg'asidan tutilgan oy baliqni yeganmisiz? Yemagansiz! Ana endi yeysiz. Chavriga o'rab dimlangan jigar yeganmisiz? Yemagansiz! Hali hasip bor, kalla go'shti bor.

Hoji yoyilib kuldi. (Jimjitlik, 42-bet)

Misolda berilgan matnda so'zlovchi nutqi tarkibida so'roq gaplar va ayni savolga javob bo'lgan gap shakllari uchraydi. Demak, bu o'rinda so'roq gapning maqsadi odatdagicha – biror ma'lumot olishdan iborat emas, balki so'zlovchi o'zida qat'iy ishonch bilan so'zlamogda. So'roq gap shakllari esa uning – so'zlovchining ko'tarinki kayfiyati, o'z ishidan olgan zavq-shavqini, umuman olganda psixikasini ochib berish uchun xizmat qilgan.

So'roq gaplar muloqot qatnashchilarining xulq-atvori va kayfiyatini aks ettiradi.



So‘roq gaplar birinchi marta uchrashib turgan yoki yangi tanishgan kishilar o‘rtasidagi muloqotda juda faol aloqa vositasi bo‘ladi. Suhbatdosh haqida ma’lumot olish yoki uning rejalarini aniqlash uchun so‘roq gaplardan foydalaniladi. Ammo so‘zlovchi maqsadini har doim ham ochiq aytmaydi. So‘roqning asosiy maqsadi ko‘pincha, implitsit tarzda ifodalanadi. Bu muloqot ishtirokchilarining axborotni qanday qabul qilish istaklariga ham bog‘liq bo‘ladi.

- Otingiz nima?

- Klara...

...Xadraga etgandan keyingina qayoqqa borishini so‘rashi kerakligi Alimardonning esiga keldi.

- Qayoqqa borasiz, Klaraxon? - dedi xotirjam ohangda gapirishga urinib.

- Chilonzor...

- Yo‘limiz bir ekan.

(O‘. Hoshimov, Bahor qaytmaydi)

Matn mazmunida o‘zaro muloqotga kirishuvchilarning yangitda tahishgani, bir-birlari haqida unchalik ko‘p ma’lumotga ega emasliklari anglashiladi. Bu jihatlar Otingiz nima? Qayoqqa borasiz? so‘roq mazmunlari orqali ochib berilgan. Muallif so‘roq egasining ichki maqsadini ochiq ko‘rsatmaydi, bu esa muloqot jarayoni tahlilini yanada murakkablashtiradi: muloqot ishtirokchilarining shaxs xususiyati aynan shu vositalar yordamida ko‘rsatib beriladi.

Anvar endi ishondi.

- Qachon? Kimga?

Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini arang bosib turardi. Ovozini iloji boricha beparvo qilib, qoshini chimirdi.

- Muqaddamga...

- A?! Qaysi Muqaddam? - Dahshatga to‘liq qisqa bir hayqiriq havoda faryod soldi. - Qaysi Muqaddam?!

Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko‘zlaridan ma‘no qidirib qoldi. Alimardon tag‘in bir marta kulib qo‘ydi.

- O‘sha o‘zing bilgan Muqaddam-da! - U oyog‘ining uchida keskin burilib ketaverdi. (O‘. Hoshimov, "Bahor qaytmaydi" 34-bet)

### XULOSA

So‘roq gaplar tilshunoslikda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qilib, nutq jarayonida axborot olish, suhbatdoshning munosabatini aniqlash va muloqotni samarali tashkil etishga yordam beradi. Ular orqali so‘zlovchining shubha, hayrat, ishonch yoki ishonchsizlik kabi hissiyotlari ifodalanadi. Shu jihatdan so‘roq gaplar pragmatik vazifalarni bajarib, muloqotning ifodaviyligini oshiradi. Mazkur maqola davomida so‘roq gaplarning fel-atvor sifatlarini ifodalashdagi o‘rni chuqurroq o‘rganildi. So‘roq gaplar orqali shaxs yoki predmetning xususiyatlari, harakati yoki holati baholanib, suhbatdoshga nisbatan munosabat bildirildi. Masalan, "U bunday murakkab ishni bajara oladimi?" kabi gaplarda nafaqat ma’lumot olish, balki suhbatdoshning qobiliyatiga nisbatan shubha yoki ishonchsizlik ham ifodalanadi. Bu holat so‘roq gaplarning pragmatik imkoniyatlarining kengligini ko‘rsatadi.

Maqola natijalariga ko‘ra, so‘roq gaplar fel-atvor sifatlarini ifodalashda ta’sirchan vosita sifatida tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘rtasida yanada chuqurroq anglashuv va fikr almashuvini ta’minlaydi. Kelgusidagi tadqiqotlar so‘roq gaplarning boshqa funksional jihatlarini ham batafsil o‘rganish imkonini beradi. Shu tariqa, so‘roq gaplar tilshunoslikdagi ahamiyati yanada chuqurroq yoritiladi va ularning til tizimidagi o‘rni to‘liq ochib beriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари -Тошкент: Академнашр, 2013. 128 бет. Б-4.
2. М. Ҳақимов. О‘zbek pragmalinivistikasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - 176 bet.
3. А. Nurmonov. Lingvistik ta’limotlar tarixi. Tanlangan asarlar. II jild. - Toshkent: Akademnashr.
4. Sh. Safarov. Pragmalingvistika. - Toshkent, 2008.
5. А. Ҳоҗиев. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent, 2002.
6. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va nutq. - O‘zbek tili va adabiyoti, 1986, №6, 28-bet.